

DENIM USLUBIDAGI LIBOSLAR TURLARI HAMDA QULAYLIKLARI

Xudaeva Dilafruz Gayratdjanovna.

Kamoliddin Bexzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti.

Libos dizayn kafedrasи o'qituvchisi

daryabukina1705@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida trendga aylangan liboslardan biri jinsi matosidan tayyorlangan kiyimlarni kiyish madaniyati va denim uslubi haqida so'z boradi. Shu bilan birga denim uslubidagi kiyimlarining qulayligi va avzaliklari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jinsi matosi, Levi Straus, denim, shambri, streych, trend, shim, kombenzon.

Худаева Диляфруз Гайратджановна.

Именем Камолиддина Бехзода

Национальный институт искусства и дизайна.

Преподаватель кафедры дизайна одежды

Аннотация: В данной статье рассматривается культура ношения одежды в джинсовом стиле, которая стала популярным трендом среди молодежи. Описание также включает основные преимущества и удобство таких изделий.

Ключевые слова: деним, Levi Strauss, деним, шамбрэ, стрейч, тренд, брюки, комбинезон.

Khudaeva Dilafruz Gayratdjanovna.

Teacher of the department of clothing design

In the National Institute of Fine Art and Design

named after Kamoliddin Bekhzod

Annotation: This article talks about the culture of wearing clothes made of denim style, one of the clothes that has become a trend among young people. At the same time, the convenience and advantages of denim style clothes are described.

Key words: denim, Levi Strauss, chambray, stretch, trend, trousers, jumpsuit.

Insonlarning zamonaviy va sifatli kiyimga bo'lgan ehtiyojining doimiy o'sib borishi korxonalar tomonidan ularning assortimenti ko'payishi va yaxshilash sifatini oshirishni talab etadi. Mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan islohatlar natijasida, ko'p kiyim-kechak va mato ishlab chiqaruvchi korxonalar qurilmoqda. Har yili shu soha bo'yicha yangi dasturlar asosida yangi kadrlar o'qitilmoqda. Yoshlar

uchun imkoniyatlarning kattaligi yoshlarni yanada yangi g'oyalar yaratishga undamoqda.

“Dizayn”- sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollarining sifatini oshiruvchi kuchli vosita ekanligi tan olinmoqda, turli dizaynerlik tashkilotlari tashkil topmoqda. Respublikamizda dizayn sohasini rivojlanishida qilinadigan ishlarimizning ko'lami nihoyatda keng Mustaqillikka erishganimizdan so'ng dizayn sanoati yana ham yuksalib rivojlanmoqda. Dizayner va modelyerlar uchun katta imkoniyatlar ochilib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitishmoqda.

Mamlakatimiz paxta yetishtirish bo'yicha jahon mamlakatlarida yetakchi o'rnlardan birida turadi. Bu esa, mamlakatni ishlab chiqarish sohasida katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirda paxta tolali matolar keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda paxta tolali matolar xaridorgir hisoblanadi. Sababi paxta tolali matolar kundalik kiyishga mo'ljallangan kiyimlar uchun juda qulay mato hisoblanadi. Shu uchun ham ishlab chiqarishda paxta tolali matolarning assortimenti katta.

Bugungi kunda yoshlar orasida trendga aylangan liboslardan biri jinsi matosidan tayyorlangan kiyimlardir. Jinsi-o'rganilgan kundalik kiyim, u siz xech qaysi garderob to'lmaydi. Yozga va qish uchun mo'ljallangan bo'lib, har qanday sharoit uchun garderobimizning o'zgarmas qismiga aylanib ulgurdi. Lekin bu matodan tikilgan liboslarni xar qanday joyga kiyib bo'lmaydi. Ushbu matoning paydo bo'lishi juda tasodifiy bo'lib, Levi Strausdan boshlandi. Buning tarixi uzoq asrlarga borib taqalib kombenzon barchaga qulay ishchilar kiyimi sifatida xal qiluvchi rol o'ynadi. 300 yil avval Frantsuz shaharchasi Nimada birinchi marta tarixda qolarli mato Serge de Nimes paydo bo'ldi. Bu taniqli jinsi matoni faqatgina 1500 yildan so'nggina tika boshlashdi, ungacha bundan paruslar uchungina ishlatilgan. Xristofor Kolumb Hindiston bo'yab safarida 1492-yilda huddi shu matodan foydalanilgan edi. Shundan so'ng parusli flotlar inqirozga uchragach matroslar uchun kiyim va kombenzonlar tikila boshlandi. 1853-yilning martida tikuvchining o'g'li Leyba Shtrauss Amerikaga keldi, uni Levi Strauss deb atay boshladilar. Akalarining xarakati bilan 24 yoshli Levi rulon parusli matosi bilan ko'chada qoldi, unga bu mato otadan meros qolgandi. Qashshoq va och qolgan yovvoyi g'arbning dunyosida zakazga ro'mol tikishni boshladi. Uning bu chaqirig'i oltin qidiruvchi ishchi payqab unga ergashdi. Levining o'zi hech ham shimlar, shalvarlar tikmagan bo'lib, lekin otasining ishini kuzatib yurardi. Shuning uchun tikuvchining o'g'li dovdiramadi, natijada jinsining 1chi ijodkori Levi-Straus bo'lib tanildi. Narnini u yetarli darajada 1 dollar 20 sent deb baxoladi. Undan arzon ish qila olmasdi, chunki tushgan foydaning yarmini u qaychi va ip bilan ta'minlagan akasiga berishi kerak edi. Bu yosh tikuvchining birinchi muvoffaqiyati bo'lib uning hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Shundan so'ng bu tikuvchining qulay va mustahkam qilib tikilgan ishlariga talab ko'paydi. 1853-yilda esa San frantsiskoda Betere ko'chasida Levi Strauss o'zining ustaxonasini ochadi va yomon munosabatda bo'lgan akalarini

ishga olib ularga ish beradi(A., 2004). U tovarni modellashtirib, ommaga tarqatish katta mas’uliyat va javobgarlikni yaxshi tushunib yetadi. U xaridorlar bilan o’zi so’zlashib ularning fikr va talablarini eshitib shunga qarab modellar yaratib tika oldi. U tikkan maxsulotlarini chuqur va qulay cho’ntakli, chiroyli va xushbichim orqa cho’ntakli qilib tika boshladilar. Jinsi Amerikada keng va katta miqdorda tarqaladi. 1860-yilga kelib Levi maxsulotlariga talab pasayadi. Oltin izlovchilar so’zlariga qaraganda cho’ntaklari tez yirtilgani, endi cho’ntaklar ixtirosi ustida ishlash kerak. U biroz kechikdi, Pribaltikadan Nevadaga kelgan tikuvchi allaqachon buning yechimini topishga ulgurgan edi. Bu tikuvchining ismi Yakob Devis bo’lib, u shu qadar qashshoqligidan o’z ixtiolarini patentlay olmasdi, shundan so’ng Levi Strauss bilan birga patentlay boshladilar (Fishman.R.B., 1990).

Lomanaya sarja jinsi-bu mato klassik dioganallik o’rniga archa shaklida to’qilgan bo’lib, uning vizit kartochkasi Vrangeer kompaniyasiga tegishlik. Bunda ip yo’nalishlari bir tomondan ikkinchi qarama-qarshi tomonga yo’naltirilgan bo’lib, o’rin almashib joylashgan.

Djin-arzon, yumshoq va sifati uncha yaxshi bo’lmagan bir xil rangga bo’yalgan mato, diogonal to’qilgan bo’lib, undan arzon jinsiyalar tikiladi.

Streych-sifati uncha yaxshi bo’lmagan, arzon cho’ziluvchan mato bo’lib, tor va yopishib turadigan kiyimlar tikishga mo’ljallangan. Uning ommalashuvi 1980-yillarga to’g’ri kelib Levi strauss & co kompaniyasiga omad keltirdi. Haqiqiy strich (rami)-xitoy krapivasi (RAMIE), 45-55% paxtadan iborat.

Dizaynerlar g’oyasi asosida yaratilayotgan yangi kiyim modellarini ishlab chiqarishda kerak bo’ladigan matolarni o’zimizda ishlab chiqarish mahsulot tannarxini ancha arzonlashtiradi. Masalan, bizda djins matosini Yevropa talabida ishlab chiqarish hozircha yo’lga qo’yilmagan, bu esa o’z navbatida bozorlari-mizda Yevropa modasiga asoslangan yopishgan siluetli, kalta, milliy madaniya-timizga zid bo’lgan djins matosidan tayyorlangan kiyimlarni ko’payib ketishiga olib kelmoqda. Chunki dizaynerlar g’oyasiga asoslangan yangi modellarni tadbiq qilish uchun matoni chetdan sotib olish mahsulot tannarxini ancha oshirib yuboradi. Bu ham dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Demak, djins matosini ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish, tadbirkorlar uchun ham, haridorlar uchun ham foydali ekan. Denim uslubi yoshlar orasida ham, o’rta yoshlilar orasida ham, erkaklar hamda ayollar orasida ham juda keng tarqalgan uslub. Shu sabab, uni insonlarga qay ko’rinishda taqdim etilsa ham, tez ommalashib ketadi. Denim uslubi akses-suarlari jihatidan boy uslub hisoblanadi va har kim o’ziga mos aksessuarlardan foydalanadi. Yoshlar asosan jins kiyimlarni metal furnituralar bilan birgalikda tadbiq qilishadi. Sport uslubiga xos yengil oyoq kiyimlar, charmdan tayyorlangan kalta etikchalar, kepklar, ryukzaklar, klatchlar, kattaroq hajmga ega sumkalar, bilakka taqishga mo’ljallangan charm va metal taqinchoqlar, ko’zoynaklar va shu kabi boshqa

aksessuarlar ham denim uslubiga o'ziga xos xushchaqchaqlik kayfiyatini baxsh etadi. Denim keng qamrovli ansamblni o'z ichiga olganligi sababli ,har bir ansambl o'ziga xos aksessuarlarni talab qiladi.

Jins jaketlar uzun romantik liboslar bilan ham yaxshi uyg'unlasha oladi, bu uyg'unlikni greklar uslubidagi sandal yoki baland poshnali oyoq kiyim, slouchlar(yumshoq shaklli shlyapalar) va ansambl rangiga monand klatch, kiyim kompozitsiyasini yanada to'ldirib turadi.

Denim uslubida shlyapalar ham aloxida ahamiyatga ega. Jins shorti, yengil matoli tunika, yozgi kalta etiklar va unga mos keluvchi yumshoq shaklli hajmdor sumka, fedora shlyapasi bilan ajoyib uyg'unlik kasb etadi.

Uzun jins syurtuk, yopishgan siluetli charm shim, gaucho uslubiga xos yozgi uchi ochiq etik, katta charm belbog' va kavboylarga xos shlyapa ajoyib ansamblni gavdalantiradi. Meksika kayfiyatini beruvchi bu ansamblda ham aksessuarlar uyg'unligi aloxida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jinsi matosi tarixiy jarayonlarda ish kiyimi ya'ni qora mehnat qiluvchilarning formasi sifatida xizmat qilgan. Matoning sifati va qulaylik jixatlari qanchalik ko'p bulsada bu matodan tayyorlangan liboslarni davlat tadbirlariga va ofis ishlari, to'y va bazmlarga kiyish tavsiya etilmaydi. Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki jinsi shim va kurtkalarni asosan o'smir yoshdagilar ko'p kiyishadi. Sababi ularda trend kiyimlarga qiziqish ko'proq bo'ladi. Biroq ularga maktab va ta'lim dargohlariga bunday liboslarda borish mumkin emasligini rasmiy etika qoidalariga to'g'ri kelmasligini o'rgatib borish joiz. Kiyinish madaniyati qoidalariga tayanadigan bo'lsak jinsi matosidan tikilgan liboslar sport kiyimlari bilan juda bir biriga yaqin bo'lib, kiygan insonga juda qulaylik beradi. Bu turdag'i liboslarni tabiat bo'lاب sayrlarga kiyish tavsiya etiladi. Insonning kiygan kiyimi atrofdagilarda u haqidagi ilk taassurotni paydo qiladi. Kiyinish madaniyati atrofdagi voqeа-hodisalarga nisbatan munosabatimizni ifodalaydi. Libos kishining didi, dunyoqarashi hamda xulq-atvoridan darak beradi. Kiyim inson ma'naviy dunyosining bir qismi. Undagi har bir element aslida o'zimiz to'g'rimizda so'zlaydi. Shunday ekan borayotgan joyimizga qarab kiyinish joizligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Т.А. "Одежда узбеков" "Фан". Ташкент. 1978 г.
2. Бердник Г.О. "Дизайн костюма" Ростов Феникс 2000 г.
3. Бердник Г.О. "Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма". Ростов. Феникс. 2001 г.
5. Bard Chaundcey, "Quick- sew Denim"